

SENING UCHUN O'LMOQ - MENING UCHUN TIRIKLIGIMDIR...

Farg'ona davlat universiteti

1-kurs magistranti

Raxmonova Gulnoza Qurvonali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdurauf Fitrat ijodining O'zbekistonda o'rganilishi va tahliliga bag'ishlangan. Unda Fitratning boy adabiy merosi, jadidchilik harakatidagi hissasi, dramaturgiya va nasriy asarlarining mavzusi hamda uslubiy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mustaqillik yillarida Fitrat ijodi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, o'zbek adabiyoti, jadidchilik, dramaturgiya, ma'rifatchilik.

Insoniyat tarixida shunday daho san'atkorlar bo'lganki, ular o'z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag'on tufaylima'naviyatimiz tarixidan yulib tashlanganiga qaramay, ular merosini o'rganish, asarlarida ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy masalalarni tadqiq etish bugungi istiqlool sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, bu ulug' adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi fidoyi adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) o'zbek adabiyoti va madaniyatining eng yorqin vakillaridan biridir. Uning ijodi xalqning milliy ongini shakllantirish, ma'rifat orqali

taraqqiyotga yetaklash g'oyalariga asoslangan. Fitratning serqirra ijodi she'riyat, dramaturgiya, nasr va ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi. Sho'ro davrida qatag'on qilingan bu buyuk siymo ijodining mustaqillik yillarida qayta o'rganilishi milliy adabiyotimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Fitratning adabiy merosi uning she'riyati, nasriy asarlari va dramaturgiyasini o'z ichiga oladi. Fitrat she'riyatida milliy uyg'onish va ma'rifatchilik g'oyalari aks etgan. Shoirning she'rlari yurakdan chiqayotgan hayqiriq misoli yangraydi. O'quvchini o'ziga mahliyo etadi. Darhaqiqat, Fitrat afandi barcha she'rlarida xalqni uyg'otishni, kurashishni, milliylikni asrab qolishni, qullikdan ozod bo'lishni va eng asosiysi yoshlarni ilm-u ma'rifatga chorlaydi. Misol tariqasida "O'gut" she'rini olaylik. Shoir har bir so'ziga yuklangan ma'no hayotiyligi bilan sizni o'ziga maftun etadi.

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda

Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.

O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda

Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.¹

Birinchi misra orqali yigitga va u orqali ahli Turkistonga murojaat etadi. Yigitning ko'zlari go'yo shoirga gapirayotganday bo'ladi. Go'zal, nurli ko'z aslida Vatan edi. Ko'zlarida esa Vatan aksi ko'rinayotir. Bu go'zallikka qarab, albatta, uning baxti, saodati bo'lishi kerak degan xulosga keladi. Keying misralarida o'yi, turushi va o'zida qutulushning chorasini ko'rganini aytadi. Haqiqatdan ham bu zulmlardan qutulish millatning o'z zimmasiga yuklatilgan ish. Shoir aytgandek, o'ylarida ham, turish-turmushuda ham, o'zligida ham erkka, mustaqillikka intilish bo'lsagina yuqorida akslangan baxtni, saodatni asrab qolish yoxud erishish mumkin bo'ladi.

Turma -yugur, tinma -tirish, bukilma -yuksal,

¹ Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.)
– Т.: Маънавият, 2006. – Б.20-23.

Hurkma -kirish, qo'rqma -yopish, yo'rilma -qo'zg'al!

Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni

Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.

Qilolmasang shu ishlarni,

Sening uchun xo'rlikdir bu...

Yiqil, yo'qol, ket!²

* * *

Ana endi e'tiborimizni ikkinchi qismga qaratsak, shoir birinchi qismda avaylab, biroz yumshoq ohangda dardini anglatasa, bu qismda esa aksincha, buyruq yo'liga o'tadi. Chunki shoir majbur bo'ladi, millatni uyg'otishning ilojini topolmaganidan buyruq ohangida aytadi. Aslida bu buyruq emas. Fitratning qonli dardi, o'kinchi, hayqirig'i hamda o'zi uchun qo'ygan vazifalari edi. Aslini olganda er yigitning qanday bo'lishi kerakligi, nima qilishi kerakligini juda oqilona yo'l bilan tushuntirib bergan. Zero, millatni qutqarish har bir inson burchidir. Ikkinchi qism gradatsiya asosida amalga oshadi. Turma deya boshlagan shoir, so'zni, ket deya yakunlaydi. El-yurti qul bo'lsa, er yigitning yashashi uyat, xo'rlikdir. Uchinchi misrada Fitratning yana bir takrorlanmas tashbehiga guvoh bo'lamiz. "Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlar" bizningcha, yel deganda shoir hur fikrli, mustaqillikka tashna, uchib yurgan, qaynoq qalbli yoshlarni nazarda tutgan. Ana endi bu yoshlarning yo'liga g'ov bo'lgan eski bulutlar bu – eshon, so'filar. Chunki ma'rifatparvarlik davrida jadidlarga ilk qarshilik ko'rsatgan, xalqni qayirishga urungan, dindan chiqqan degan ayblovlar bilan ularni tuhmatga giriftor qilgan eskilik tarafdorlari, qadimchilar edi. Shoir esa bu eski bulutlarga qarata yondirishni, yo'q etishni taklif qiladi. Haqiqatan ham bu eski bulutlar bor ekan, biz o'z maqsadimizga yeta olmaymiz. Aniqroq aytganda, daraxtning chirib

² O'sha asar. 24 bet.

turgan ildizni kesib, Fitratona aytganda, “yondirib” qutulmoq darkor. Chunki uning zahri qolgan yangi, toza ildizlarni ham o’z domiga tortib, zaharlaydi.

O’zida ayni shu mavzuni davom ettirgan “O’qitg’uchilar yurtiga” nomli she’ri ham mavjud. Shoir go’yo, yuqoridagi fikrlarini bu she’rda ham davom ettirayotgandek.

Orqadoshlar, to’planaylik jahlning uyini yiqqali,

El ko’zin olg’an qorong’u pardalarni yirtqali.

Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari,

To’planaylik, turk elig’a to’g’ri yo’llar ochqali.

Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,

Bizlari ham bu kundan o’zi qutqarur.³

Bu she’rni ham tahlil qilar ekanmiz, unda ham ayni yuqoridagi dard, o’sha hissiyotlar gavdalanadi. Fitrat yana va yana erkni, ilmni takrorlaydi. El ko’zini ochishni istaydi. Darhaqiqat, o’sha zamonlarda barcha ishlar imi-jimkida hal bo’lgan. Stalin qatag’on mashinasi yuragida o’ti bor kim bo’lsa yo’q qilish bilan shug’ullangan. O’sha davrda bunday she’rni yozish ham mardlik aslida. Ayni shu ishlari sabab bu qatag’on mashinasi ham Fitratni yashagani qo’ymadi, millatni uyg’otgani hyo’l bermadi.

Har qanday asar, eng avvalo, qandaydir fikrni, g’oya va haqiqatni aytish istagidan tug’iladi. So’ng bu g’oyani ifodalashga xizmat qiladigan hayotiy material tanlanadi. Fitrat uchun jadidchilik islohotchilik va ma’rifatparvarlik g’oyalari har doim g’oyaviy maqsad bo’lib xizmat qilganligi asarlari tahlili misolida asoslanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytsak, Fitrat nazmi betakror, lutfi go’zal, ohangi diltortar. Fitratning har bir so’zi xalqni uyg’onishiga, ilm-ma’rifatli bo’lishiga undaydi. Uning ijodidan bahramand bo’lgan har inson albatta, o’zi uchun yetarli xulosalar

³Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.)
– Т.: Маънавият, 2006. – Б.25.

chiqaradi. Jadidlarimizning umri, harakati besamar ketmadi, mana bugun ular kutgan kunlar keldi. Biz ham o'z salohiyatimiz ila ular boshlagan yo'lni davom ettiramiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2006. – Б.25.
2. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Т.: “SHAMS - ASA” МЧЖ босмахонаси. – Б.51;
3. Boltaboyev H. Fitrat — adabiyotshunos.-Т.:Yozuvchi,1998
4. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish, T., A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004, 182-191-betlar.